

## MA'RIFATPARVAR AVLONIY HAYOTIGA NAZAR

Eshtemirov Komiljon

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti Tarix fakulteti  
3-bosqich talabasi*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Kavkaz, Tatariston hududlarida insonlar hayotini, tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan yangi bir harakat vujudga keldi. Bu jadidchilik harakati edi. Jadid arabcha “yangi” degan ma’noni bildiradi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlagandek “mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Imdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqloq, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar”<sup>49</sup>. Ular orasida o'sha davrning yetuk salohiyati, har sohada mohir Turkiston farzandlari bor edi. Shulardan biri Abdulla Avloniy edi.

Ma'rifatparvar, jurnalist, dramaturg, shoir, pedagog va davlat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida Mergancha mahallasida kasbi to'quvchilik bo'lgan Miravlon aka xonadonida dunyoga keldi. Onasining ismi Fotima bo'lgan.<sup>50</sup> Dastlab O'qchidagi eski maktabda, keyin madrasada o'qidi. Yoshligidan kitob mutolaasi bilan mashg'ul bo'ldi va doimiy ravishda xorijiy jurnal, gazetalarni kuzatib bordi. “Navoiy she'riyatiga, Fuzuliy g'azallariga mehr qo'ydi. So'ngsiz bir ishtiyoq bilan fors tilini o'rgandi. Sa'diy va Hofizning sehrli olamidan zavq-shavq oldi. Nihoyat bular o'z samarasini berdi. O'zi kamtarona qayd qilganidek, «she'r yozishga tutindi». Avloniy bu vaqtni 1894-yil deb ko'rsatadi.”<sup>51</sup> Afsuski, yoshlik davrida yaratgan she'rlarining hech biri bizgacha saqlanmagan Arab, fors, rus tillarini o'rgandi. Bu tillardagi yozilgan asarlarni o'rgandi va L.Tolstoy va Ushinskiyninglarning asarlarini bir qanchasini tarjima qildi. 1905-1906-yillarda o'z ijod namunalari bilan matbuotda ko'rinib boshladi. 1904-yilda Mirobodda va Degrezliqda (1903–14)

<sup>49</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 sentyabrdagi Farmoni: Ma'rifatparvar jadidchilik namoyandalarini mukofotlash to'g'risida // Xalq so'zi, 2020 yil 1 oktyabr.

<sup>50</sup> Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar: 1-jild: She'rlar, ibratlar. – T.: “Manaviyat”, 2020. – 5 bet

<sup>51</sup> Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar: 1-jild: She'rlar, ibratlar. – T.: “Manaviyat”, 2009. – 5 bet

xuddi shunday yangi usul maktablarini ochdi hamda u yerda dars berdi. O'zining pedagoglik faoliyati davomida maktabda eskicha maktablarda mavjud bo'lmagan tartiblarni o'rnatdi. Ya'ni, o'quvchilarni yosh toifasiga ko'ra sinflarga bo'lish, Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir etdi, har bir dars o'rtasida tanafus, sinfdan-sinfga o'tishda imtihon tizimini yo'lga qo'yish, dunyoviy va diniy ta'limni birgalikda olib borishga harakat qildi. Maktablarda o'qitish uchun "Birinci muallim" ("Muallimi avval", 1909), "Ikkinchi muallim" ("Muallimi soniy", 1912) nomli darsliklarini yozdi. "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Gulistoni maktab" (1917), "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1916) kabi qo'llanmalari ham maktablarda o'qitilgan. Bular orasida "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini fors shoiri Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" asaridan ta'sirlanib, "Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab'ihada muvaffaq o'ldum, chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal «Axloq kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bol'sa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim"<sup>52</sup>, deb aytadi. Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik usulida nashr etildi. Darslikka bo'lgan ehtiyojni hisobga olib 1917 yilda ikkinchi marta chop qilindi. Har ikkala nashr ham hajm jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. Yozilgan barcha darsliklar, qo'llanmalar va ijod namunalari nafaqat o'sha davr, balki hozirgi zamon yoshlarining tarbiyasida ham katta ahamiyatga egaligi bilan dolzarb hisoblanadi. Avloniy pedagoglik faoliyati davom ettirar ekan, 1917-yil 1-avgustda Qozonda Butunrossiya musulmon o'qituvchilarining II syezdi ochilgan va unda vakil sifatida qatnashgan. Shoir 1917-yilda mahalliy muallimlar o'rtasida siyosiy ishlar oliob boruvchi "O'qituvchilar soyuzi"ni tuzgan edi"<sup>53</sup>.

XX asr boshida Turkistonda shakllanayotgan matbuotni rivojlanishiga birinchilardan bo'lib o'z hissasini qo'shdi. Shu davrdan boshlab matbuotda publisistik maqolalari bilan ham qatnasha boshladi. 1906-yil "Taraqqiy", 1907-yilda "Shuhrat" nomli gazetalarini nashr qildi. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yil yashirin ravishda "Osyo" gazetani nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'ygan. Shundan so'ng

<sup>52</sup> Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq". Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent, 2018, 3 bet.

<sup>53</sup> Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola. Olim Oltinbek. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 10 bet

Avloniy ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda 1914-yilda "Nashriyot", 1916-yilda "Maktab" shirkatlarini tashkil etishda faollardan bo'ldi. 1917 yilda o'zi "Turon" nomli gazetani chop ettirdi. Bu harakatlar negizida xalqning savodxonlik dararajasini oshirish, jamiyat hayotidagi o'zgarishlardan ommani xabardor qilish kabi maqsadlar yotardi. 1918 yildan Turkiston Shurolar hukumati tomonidan nashr etilayotgan gazeta "Ishtirokiyun"ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi.

Avloniy faoliyati davomida teatr sohasida ham ishtirok etdi. 1913-yil "Turon" truppasini tashkil etdi. Truppaning g'oyaviy asoschisi Avloniy, dastlab Behbudiyning "Padarkush" asarini sahnalashtirdi. "1914-yil 26-dekabrida truppa "Turkiston" nomi bilan Farg'ona vodiysi bo'ylab safarga chiqdi, bir qator shaharlarda gastrolda bo'ldi"<sup>54</sup>.

Avloniy 1917-yillardan e'tiboran siyosiy faoliyat bilan ham shug'ullana boshladi. Jumladan, 1919-yil 20-sentabrdan 1920-yilning iyuniga qadar Afgonistonda RSFSR ning bosh konsuli bo'lib ishladi. Sog'ligi yomonlashgani bois ortga qaytgan Avloniy maorif tizimida o'z faoliyatini olib bordi. Maorif tizimidagi xizmatlari evaziga 1927-yili "Mehnat qahramoni" unvoni, 1930-yili "O'zbekiston xalq maorifi zarbdori" faxriy unvonlari bilan taqdirlandi.

Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda vafot etdi.

Mustaqillik yillarida barcha ajdodlarimiz qatorida jadidlar faoliyatini qayta o'rganish, ularning faoliyatiga to'g'ri baho berish, ilmiy merosini o'rganish ishlar jadallashdi. Jadidlar va Avloniy hayotiga bag'ishlangan kinofilmlar ishlandi. Abdulla Avloniyning mehnatlarini inobatga olgan holda 2020-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи садайн ва мажмаи

бахрайн” асари темурийлар давридаги маданий-маърифий жараёнлар тавсифи бўйича қимматли манба сифатида // ФарДУ Илмий хабарлари. – Фарғона, 2020. № 3. –Б. 115-121. (07.00.00. № 32).

2. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи садайн ва мажмаи бахрайн” асарида темурийлар давридаги адабиёт, тарих, санъат ва

<sup>54</sup> Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola. Olim Oltinbek. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 8 bet

хунармандчилик соҳаларига доир маълумотлар // ҚарДУ Хабарлари. – Қарши, 2020. № 3. –Б. 70-74. (07.00.00. № 25).

3. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн” асарида Темурийларнинг маданиятга муносабати тавсифи // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2020. № 11/3. –Б. 39-46. (07.00.00. № 41).

4. Akhmedov S. B. Analysis of Information on Local Embassy Relations in Abdurazzak Samarkandi's Work" Matlai Sadayn Wa Majmai Bahrain" //REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS. – 2021. – Т. 11. – № 3. – Р. 234-244. (DOAJ, CiteFactor) <http://revistageintec.net/wp-content/uploads/2022/02/1930.pdf>

5. Ахмедов С.Б., Бойматов Х. “Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн” асаридаги айрим маълумотлар таҳлили // Шарқ машъали. – Тошкент, 2021. № 3. –Б. 133-138. (07.00.00. № 9).

6. Ахмедов С.Б. “Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн” асарида Хитой ва Ҳиндистондаги меъморий иншоотлар ва маданий ҳаёт // Шарқшунослик. – Тошкент, 2021. № 3. –Б. 136-151. (07.00.00. № 10).

7. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн” асарида Дашти Қипчоқ, Гуржистон, Озарбайжон, Рум, Мўғулистон ва бошқа мамлакатлар билан олиб борилган элчилик алоқаларига оид маълумотлар таҳлили // Ўзбекистон-Туркия муносабатлари тарих кўзгусида (қадимги давр, ўрта асрлар ва ҳозирги замон) халқаро конференцияси материаллари. – Тошкент, 2021. –Б. 750-759.

8. Akhmedov S.B. Analysis of information of embassy relations in Abdurazzak Samarkandi's work "Matlai sadayn wa majmai bahrain" // International scientific and practical conference "Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations". – Prague, 2022. –Р. 137-147.

9. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн” асарида келтирилган эпидимологик вазиятлар тўғрисидаги маълумотлар таҳлили // “Илмий тадқиқотлар, инновациялар, назарий ва амалий стратегиялар тадқиқи” мавзусидаги 1-сонли республика кўп тармоқли, илмий конференцияси. – Тошкент, 2022. –Б. 499-502.

10. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн” асарининг номланиши. // Театр. – Тошкент, 2021. № 2. – Б. 38- 40.

11. Akhmedov S.B. Expression of the development of the uzbek language during the time of the Temurian in period sources // International scientific and

practical conference Innovative development in the global science. – Boston, 2022. – P. 193-198.